O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**Tabiiy fanlar fakulteti**
“Ekologiya va geografiya” kafedrasi

**“Tasdiqlayman”**
**Tabiiy fanlari fakulteti dekani**
**_____ M.M. Ergashev**
**“___” _____ 2021-yil**

# “O‘ZBEKISTON IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI” KURSIDAN MUSTAQIL TA’LIM UCHUN USLUBIY KO’RSATMA

(4-kurs uchun)

**Bilim sohasi**: 100000 – Gumanitar
**Ta’lim sohasi**: 110000 –Pedagogika
**Ta’lim yo’nalishi:** 5110500 – Geografiya o’qitish metodikasi

| **Mashg`ulot turi** | **Ajratilgan soat** | **Semestr** |
|---|---|---|
| Mustaqil ta’lim | 84 | 7 |

**Guliston-2021**

**Xidiraliyev K.E.** “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursidan mustaqil ta’lim uchun uslubiy ko’rsatma (4-kurs uchun). Guliston. GulDU-2021. 33 bet.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘rganayotgan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari talabalari, o‘quvchilari va o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

**Tuzuvchi:**
Xidiraliyev K.E. GulDU “Ekologiya va geografiya” kafedrasi dotsenti, g.f.n.

**Taqrizchilar:**
“Ekologiya va geografiya” kafedrasi mudiri g.f.n., dotsent Karshibayeva L.K.

“Ekologiya va geografiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi Axunboboyev M.M.

Uslubiy ko‘rsatma Guliston davlat universiteti kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilingan (28.08.2021 yil, 1-sonli bayonnoma).

## Kirish

Ushbu uslubiy ko’rsatma Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to’g’risidagi 2009 yil 14 avgust 286 sonli buyrgg’i Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo’yicha Yo’riqnomasi (1-ilova) asosida tuzilgan.

GulDU «Geografiya va uni o’qitish metodikasi» kafedrasida talaba mustaqil ta'limini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to’g’risida “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanidan uslubiy ko’rsatma yozish maqsadga muvofiq deb topildi.

**Mustaqil ta'limni bajarishdan maqsad.**

Mustaqil ta'limni bajarishdan maqsad “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanidan zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish tekshirish malakalarini hosil qilish va ijodiy fikrlashga o’rgatishdir. Bu bilan talabalar ilmiy maqola va adabiyotlarni o’qishga, ma`lumotnomalardan foydalanishga, bibliografik, sharhlar tuzishga, elektron o’quv-adabiyotlar va internetdan topishga, tajriba malakalarini oshirishga, mantiqiy fikirlashga, ishlarni rasmiylashtirishga o’rganadilar.

Mustaqil ta'lim darsdan tashqari yoki auditoriyada ma`lum bir bo’limlarni va o’quv mashg’ulotlarni o’rganib bo’lgach bajariladi.

**Mustaqil ta'limni bajarish tartibi.**

Talabaning mustaqil ta'limning mavzusini talabalar semestr boshlanishi bilan mustaqil ravishda o’qituvchi ko’magida tanlab olinadi. Talabaning mustaqil ta'limini ish rejasi o’qituvchi tomonidan o’rganiladi, agar ish tajribadan, dala sharoitida bajarilsa yoki ko’p qismdan iborat bo’lib, ko’p mehnat talab qilsa, bunday mavzu bir necha talabaga beriladi.

Agar talabaning bilimi mustahkam bo’lmasa, talabaning mustaqil ta’limni o’rganadigan fandan nazariy referat ko’rinishida berilishi mumkin. O’qituvchi har bir talaba bilan suhbat o’tkazib, tavsiya qilingan adabiyotlarni ko’rsatishi, mustaqil ta’lim rejasini ishlab chiqarishi kerak.

Mustaqil ta’lim ma`ruza, referat, vertual stend, elektron ko’rgazma ko’rinishida rasmiylashtirilib guruhda, kursda, kafedra kengashida himoya qilinadi.

**“O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanidan mustaqil ta’limga VII- Semestrda 84 soat ajratilgan.**
**Mustaqil ta’lim mavzulari**

| T/r | Mavzular | Soatlari hajmi |
|---|---|---|
| 1 | O’zbekiston Respublikasining tashkil topishi bosqichlari va hududiy ma’muriy tuzilishi. | 2 |
| 2 | O’zbekiston Respublikasining kattaligi, chegaralari xususiyatlari. | 2 |
| 3 | O’zbekistonning tabiiy resurslari. | 2 |
| 4 | O’zbekiston iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish darajasi. | 2 |
| 5 | O’zbekiston iqtisodiy rivojlanishining hozirgi muammolari va istiqbollari. | 2 |
| 6 | O’zbekistonda mustaqillik yillarida to’qimachilik sanoatining rivojlanishi. | 2 |
| 7 | O’zbekiston avtomobil transporti geografiyasi. | 2 |
| 8 | O’zbekiston tabiiy sharoiti va resurslari. | 2 |
| 9 | O’zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti va uning asosiy ko’rsatkichlari bo’yicha jahon va MDH da tutgan o’rni. | 2 |
| 10 | O’zbekisiston oziq-ovqat sanoatining mustaqillik yillarida rivojlanishi. | 2 |
| 11 | O’zbekistonning IGO’ xususiyatlari. | 2 |
| 12 | O’zbekistonning go’sht va sut sanoati va uning mustaqillik yillarida rivojlanishi. | 2 |
| 13 | O’zbekiston qishloq xo’jaligining mustaqillik yillarida rivojlanishi. | 2 |
| 14 | O’zbekiston og’ir sanoat tarmoqlari. | 2 |
| 15 | O’zbekiston sanoatidagi tarkibiy o’zgarishlar. | 2 |
| 16 | O’zbekiston yangi mashinasozlik korxonalari geografiyasi. | 2 |
| 17 | Toshkent iqtisodiy rayoni xo’jaligi tarkibi, rivojlanish darajsi. Sanoatining asosiy tarmoqlari va geografiyasi. | 4 |
| 18 | Mirzacho’l iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari. | 4 |
| 19 | Mirzacho’l iqtisodiy rayoni xo’jaligi: rivojlanish bosqichalri va darajasi, respublika iqtisodiyotida tutgan o’rni. Sanoatining asosiy tarmoqlari va geografiyasi. | 4 |
| 20 | Farg’ona iqtisodiy rayoni, Farg’ona iqtisodiy rayonining kattaligi, chegaralari, tarkibi, geografik o’rni. | 4 |
| 21 | Farg’ona iqtisodiy rayoni xo’jaligi: rivojlanish bosqichlari va darajasi, respublika iqtisodiyotida tutgan o’rni. Sanoatining asosiy tarmoqlari geografiyasi. Transporti. Andijon viloyati, Namangan. | 4 |
| 22 | Samarqand iqtisodiy rayoni. Samarqand iqtisodiy rayoniningn kattaligi, chegaralari, geografik o’rni, tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari. | 4 |
| 23 | Samarqand iqtisodiy rayoni xo’jaligi: rivojlanish bosqichlari va darajsi. Respublika iqtisodiyotida tutgan o’rni. Sanoatining | 4 |

| | | |
|---|---|---|
| | tarmoqlari geografiyasi. | |
| 24 | Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoni. Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoniningn kattaligi, chegaralari, geografik o'rni, tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari. | 4 |
| 25 | Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoni xo'jaligi: rivojlanish bosqichlari va darajsi. Respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni. Sanoatining tarmoqlari geografiyasi. | 2 |
| 26 | Qashqadaryo iqtisodiy rayoni. Qashqadaryo iqtisodiy rayoniningn kattaligi, chegaralari, geografik o'rni, tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari. | 4 |
| 27 | Qashqadaryo iqtisodiy rayoni xo'jaligi: rivojlanish bosqichlari va darajsi. Respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni. Sanoatining tarmoqlari geografiyasi. | 2 |
| 28 | Surxondaryo iqtisodiy rayoni. Surxondaryo iqtisodiy rayoniningn kattaligi, chegaralari, geografik o'rni, tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari. | 4 |
| 29 | Surxondaryo iqtisodiy rayoni xo'jaligi: rivojlanish bosqichlari va darajsi. Respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni. Sanoatining tarmoqlari geografiyasi. | 4 |
| 30 | Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni xo'jaligining xususiyatlari va rivojlanish darajsi. Sanoat tarmoqlari va geografiyasi. Qishloq xo'jaligi va geografiyasi. Orol va Orol bo'yi ekologik muammolari. | 4 |
| | **Jami:** | **84** |

## I. "O'ZBEKISTON IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI" FANIDAN MUSTAQIL ISHNI YOZISHGA TAYYORLANISH

### 1.1. Mustaqil ishi mavzusini tanlash

Talaba tomonidan mustaqil ishini muvaffaqiyatli bajarish ko'p jihatdan mavzuni ijodiy ishlab chiqish va tanlab olishga bog'liqdir. Talaba o'z ilmiy va amaliy qiziqishlarini hisobga olgan holda mustaqil ishi mavzusini kafedra tomonidan tuzilgan va tasdiqlangan mustaqil ishi mavzularining ro'yxati ichidan mustaqil ravishda tanlab olishi kerak.

### 1.2. Mustaqil ishi tuzilishi

Mustaqil ishi mundarija**,** kirish qismi, asosiy bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'ladi. Kichik hajmdagi yoki kam ball bilan baholanuvchi (masalan 0.1-0.3 ball), videomaterial ko'rinishidagi mustaqil ishlar uchun yuqoridagilarning ayrimlarini talaba kiritmasa ham bo'ladi.

Uning barcha qismlari bir biri bilan o'zaro bog'langan va mustaqil ishi mavzusini ochib berish maqsadiga xizmat qilishi lozim.

Amaliy ma'lumotlarni yig'ish, tartibga solish, tahlil qilish va umumlashtirish jarayonida mustaqil ishi rejasiga aniqlik kiritilishi yoki u o'zgartirilishi mumkin.

## 2. MUSTAQIL ISHGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR

**2.1.** Mustaqil ishini tayyorlashga bo'lgan talablar.

Mustaqil ishi hajmi qo’lda yozilgan matnda 4-25 bet doirasida bo’lishi kerak.

Mustaqil ishi uning rejasiga muvofiq alohida qismlarga (boblar va paragraflarga) bo’linadi. Bu qismlarning nomi qisqacha bo’lib, mazmuniga mos tushishi va matnga simmetriya ravishda bosh harflar bilan yozilishi lozim. Betlar arab raqamlari bilan yuqoridagi o’ng burchakda raqamlanishi lozim.

Mustaqil ishi quyidagi tarkibiy qismlarni o’z ichiga olishi lozim:

• titul varag’i;
• mundarija;
• kirish;
• mustaqil ishining eng muhim masalalarini birlashtiruvchi asosiy qism;
• xulosa;
• foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati;
• ilovalar.

Mustaqil ishi A4 (210*297) formatli oq varaqning bir tomoniga 1 yoki 1.5 interval orqali yoziladi va uni yozishda quyidagi hoshiyalar o’lchamiga rioya qilish lozim:

chap hoshiya – 30 mm.
o’ng hoshiya – 15 mm.
pastki hoshiya – 20 mm.
yuqorigi hoshiya – 20 mm.

Mustaqil ishi raqamlash titul varag’idan oxirgi betgacha hamma varaqlarni o’z ichiga olishi lozim. Titul varag’i birinchi bet hisoblanadi va unga raqam qo’yilmaydi. U 1-ilovada keltirilgan forma bo’yicha to’ldiriladi.

Mustaqil ishidagi barcha illyustratsiyalar (grafiklar, rasmlar, diagrammalar va h.k.) o’z nomiga ega bo’lishi va bu nom uning yuqori yoki past qismiga yozilishi lozim.

Barcha formulalar arab raqamlari bilan raqamlanishi kerak. Formula raqami uning to’g’risida varaqning o’ng tomonida qavs ichida ko’rsatiladi.

Mustaqil ish yozish namunasi 4-ilovada ko’rsatilgan.

## 3. Mustaqil ishning vaziflari:

## Mustaqil ishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1.“O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanidan kunlik kiritilayotgan yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o’zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
2.“O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” faniga doir kerakli ma'lumotlarni izlab topish, materialni tahlil qilishning qulay usul va vositalarini aniqlash;
3.Hujjatlarni yig'ish;
4.Axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
5.An'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
6.Elektron o'quv adabiyotlari va ma'lumotlar omboridan ma'lumotlar yig'ish;
7.Internet tarmog'ida yoritib borilayotgan informatsion axborotlardan maqsadli foydalanish;
8.Qo’shimcha adabiyotlar va manbalar to'plab borish;
9.“O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanidan ma'lumotlar omborini tashkil etish;

10.Mustaqil ishda o’qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
11.Talaba tomonidan ishlab chiqilgan g'oyani asoslash va mutaxassis ishtirokida himoya qilish.
12.Chet tilida nashr etilgan adabiyotlarni yig’ish va uni tarjima qilish hamda undagi ma’lumotlardan mustaqil ishni yosishda foydalanish.

## 4. Talaba mustaqil ishning tashkiliy shakllari

l. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda mustaqil ish “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani xususiyatlarini, shuningdek har bir talabaning o’zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

-ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish;

-berilgan mavzu bo'yicha referat, buklet, test tayyorlash;

-nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

-amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;

-talaba mustaqil ravishda seminarga mavzu tayyorlashi va uni taqdim etishi mumkin;

-taqdimotlar tayyorlash;

-videomaterial tayyorlash;

O’qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishni tashkil etishda boshqa zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

2. O’quv fani bo'yicha na'munaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishini shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi;

3. Talaba mustaqil ishi uchun vaqt hisobiga mos ravishda “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani bo'yicha kafedrada mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlari ishlab chiqiladi va kafedra ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqiladi va kafedra yig'ilishida tasdiqlanadi.

4. Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha talabalarga zaruriy metodik qo'llanma, ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## 5. Talaba mustaqil ishining axborot ta'minoti.

1. Talaba uchun “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedra o’qituvchisi (yoki malakali mutaxassis) tomonidan o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o’qituvchi bilan birgalikda tuziladi, hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabalarga berilgan mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha dastlabki ko'rsatma va tavsiyalar ko'rsatiladi.

2. Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanmalar va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami, ma'ruzalar matni, uslubiy qo'llanmalar, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, Internet tarmog'idagi tegishli saytlar va ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha bajarilgan ishlar natijalariga xizmat qiladi.

**“O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanidan mustaqil ishni bajarish uchun asosiy va qo’shimcha o’quv-adabiyotlar hamda axborot manbalari ro’yxati**


1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Halq so‘zi gazetasi. 2017 yil yanvar, №11.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
4. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” , 2017y.
5. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo‘g’rofiyasi, -T.: O‘qituvchi, 1994.-209 b.
6. Maksakovskiy V.P. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira - M.: Prosveщenie, 2009 g.
7. Otamirzaev O.B., Qayumov A.A. Ijtimoiy geografiya: kecha, bugun, ertaga. "Istiqlol va geografiya", O‘zbekiston Respublikasi Geografiya jamiyati se’zdi materiallari. - T.: - 1995.
8. To‘xliyev N. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti.- T.: O‘zbekiston milliy enseklopediyasi, 2006.
9. Soliyev A, Safarov I. «Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari». T. 2003 y. «Talqin».
10. Soliyev A. O‘zbekiston geografiyasi (O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi). Toshkent, ”Universitet”, 2014.
11. Musayev P, Musaev J, “O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” O‘rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik T. “O‘qituvchi” 2014y.
12. Vahobov H., Tillaboeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari. Toshkent. "O‘qituvchi", 2001.
13. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.
14. www.ziyonet.uz
15. www.nuu.uz


3.Kafedra mudiri tomonidan tegishli fakultet dekani taqdimnomasi asosida oliy ta'lim mutaxassisi rahbariyati talabalarga mustaqil ishlarini bajarish uchun zarur axborot va vositalarni belgilaydi, talabalarga kutubxona, muzeylar, tarixiy joylar, arxivlar, qo’shma korxonalar, tarmoq mussasalari va kichik korxonalardan mustaqil ish uchun zarur ma'lumotlar to'plash uchun barcha shart-sharoit yaratib beradi.

Universitet rahbariyati tomonidan talabalarga ishlarni o'z vaqtida bajarish uchun kompyuter texnikasi universitet tarmog'idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi.

## 6. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish va baholash.

1. “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fani bo'yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish yuklamasi professor o’qituvchi shaxsiy ish rejasining tashkiliy - uslubiy bo'limida qayd etiladi;

2. “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanidan mustalqil ish rejalari kafedra mudiri tomonidan o'quv yili boshida tasdiqlanadi va semestr yakunida talaba tomonidan tayyorlangan mustaqil ishlar kafedraga topshiriladi va hisoboti o'quv bo'limiga topshiriladi;

3. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish, o'quv mashgulotlarini bevosita olib boruvchi o’qituvchi tomonidan olib boriladi;

4. Talabaning mustaqil ishi “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» fanidan mustaqil ish rejasida ajratilgan soatlarga mos reyting ballari bilan baholanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy reyting baliga kiritiladi.

Mustaqil ishlar jurnaliga talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ishlar uchun reyting ballari qayd etib boriladi.

Talabaning reyting ko'rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha ko'rsatkichlari an'anaviy reyting oynasida yoritib boriladi.

5. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari kafedra tomonidan belgilanadi, hamda fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi.

Mustaqil ishlarni baholash mezoni o'quv yili (semestr) boshlanishi oldidan uslubiy materiallari bilan birgalikda tarqatiladi.

6. Mustaqil ish bo'yicha talaba ball to’plamasa, fan bo'yicha yakuniy nazorat qo'yilmaydi.

7. Talabaning mustaqil ishi kafedra arxivida ro’yhatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

8. Talabaning namunaviy bajargan mustaqil ishi o’qituvchilar xonasidagi kafedraning na'munaviy ish oynasida turadi.

Bu albatta, DTS talablarini to'la bajarilishida va mustaqil ishlarni talaba tomonidan qoniqarli bajarilishida muhim ahamiyatga ega.

### 6.1 Baholash tartibi va mezonlari.

Talabalarning bilim saviyasi, ko’nikama va malakalarni nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning «Markaziy Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi » fanidan mustaqil ishi bo’yicha o’zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalaniladi.

Talabaning semestr davomidagi mustaqil ishi bo’yicha o’zlashtirish ko’rsatkichi 10 ballik tizimda baholanadi. Geografiya o’qitish metodikasi kafedrasida o’qitiladigan barcha fanlardan joriy nazorat 40 ball qilib belgilangan va uning 10 bali mustaqil ish uchun ajratiladi. Bu jami JN balining 25%-ni tashkil etadi.

Talaba mustaqil ish uchun ajratilgan 10 ballni semester davomida bir necha mustaqil ishlarni bajarish orqali yig’ib boradi.

***Baholash mezonlari.*** Mustaqil ta’lim -10 ball bilan baholanadi.

Mustaqil ta’limning umumiy ballari quyidagi mezonlar bo’yicha belgilanadi:

**a)** 9-10 ball uchun – talaba “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanini va fan bo’yicha qonun –qoidalarni bilishi, xulosa va qaror qabul qilishi, Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining o’ziga xos geografik o’rni, tabiiy boyliklari, aholisi va mehnat resurslari, ular xalq xo’jaligining

asosiy xususiyatlari, ishlab chiqarish tarmoqlarining tarkibi va hududiy joylashi, tashqi iqtisodiy aloqalari, iqtisodiy rayonlari va ular o’rtasidagi geografik va ekologik tafovutlar va fanning boshqa jihatlarini bilishi va ijodiy fikrlay olishi, olgan bilimlarini amalda qo`llay olish, ularning tadbiqi, fan yutuqlari haqidagi mohiyatini tushunishi, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni bilishi, aytib berishi va ular to`g`risida tasavvurga ega bo`lishi, savollarni to`liq yorita olsa, material bo`yicha bilim va ko`nikmaga ega bo`lib, hayotga tadbiq etsa bundan tashqari mustaqil mushohada yurita olishi, qo`shimcha savollarga (agar og`zaki bo`lsa) javob bersa qo`yiladi.

**b)** 7-8 ball uchun - talaba “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanini va fan bo’yicha qonun –qoidalarni bilishi, xulosa va qaror qabul qilishi, Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining o’ziga xos geografik o’rni, tabiiy boyliklari, aholisi va mehnat resurslari, ular xalq xo’jaligining asosiy xususiyatlari, ishlab chiqarish tarmoqlarining tarkibi va hududiy joylashi, tashqi iqtisodiy aloqalari, iqtisodiy rayonlar va ular o’rtasidagi geografik va ekologik tafovutlar va fanning boshqa jihatlarini bilishi va mustaqil mushohada yurita olishi, bozor iqtisodiyoti sharoyitida hududlarning iqtisodiy rivojlanishi, muammolari va istiqbollari yoritilsa hamda shu bo’yicha rejalashtirilgan barcha savollarni to`liq yorita olsa va olgan bilimlarini amalda qo`llay olishi, nazariyalar va qonun-qoidalarni bilishi, aytib berishi va tasavvurga ega bo`lishi, material bo`yicha bilim va ko`nikmaga ega bo`lsa, ammo ahamiyati katta bo`lmagan xatoliklarga yo`l qo`ysa qo`yiladi.

**v)** 5,5-6 ball uchun – talaba “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanini va fan bo’yicha qonun –qoidalarni bilishi, xulosa va qaror qabul qilishi, Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining o’ziga xos geografik o’rni, tabiiy boyliklari, aholisi va mehnat resurslari, ular xalq xo’jaligining asosiy xususiyatlari, ishlab chiqarishva xizmat ko’rsatish tarmoqlarining tarkibi va hududiy joylashi, tashqi iqtisodiy aloqalari, iqtisodiy rayonlari va ular o’rtasidagi geografik va ekologik tafovutlar va fanning boshqa jihatlarini bilishi va mustaqil mushohada yurita olishi, respublikamizning Jahon iqtisodiyotida tutgan o’rni haqidagi savollarni to`liq yorita olmasa, ilmlarga tasavvurga ega bo`lishi, savollar bo`yicha asosiy tushunchaga ega bo`lsa, xatoliklarga yo`l qo`ysa qo`yiladi.

**g)** Quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi 0-5 ball «2» baho bilan baholanishi mumkin: talaba “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanini va fan bo’yicha qonun –qoidalarni bilishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining iqtisodiy rivojlanishi haqidagi savollarni ochib berolmasa, material bo`yicha bilim va ko`nikmaga ega bo`lmasa, aniq tasavvurga ega bo`lmaslik, bilmaslik va jiddiy xatoliklarga yo`l qo`ysa qo`yiladi.

## 7. MUSTAQIL ISH HIMOYASI

Mustaqil ishlar himoyasi uchun kafedra komissiya tarkibini tasdiqlaydi.

Mustaqil ishlar himoyasi tartibi. Talaba 3-15 daqiqa davomida komissiyaga mustaqil ishning maqsadi, vazifalari, mazmuni hamda o’z tavsiyalari va takliflari to’g’risida axborot beradi. Shundan so’ng talaba mustaqil ishi mavzusiga va u bilan bog’liq bo’lgan komissiya a’zolari savollariga javob beradi.

Mustaqil ishlar himoyasi talaba tomonidan multimediya va boshqa zamonaviy axborot texnologiyalari, taqdimotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Agar talaba ushbu vositalardan foydalansa, unga albatta qo'shimcha ball qo'shiladi.

Agar talaba o'z mustaqil ishini chet tilida yozib himoya qilsa, unga tegishli ravishda ball qo'shib beriladi. Lekin mustaqil ishlarni chet tilida yozish va himoya qilish majburiy emas (agar fan chet tilida o'qitilsa mustaqil ish chet tilida yozib himoya qilinadi)

Mustaqil ishlar bahosi komissiya tomonidan ilmiy rahbar taqrizi va talaba javoblari asosida belgilanadi.

*Ilova-1*
*Titul varaqasi namunasi*

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O’RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**Tabiiy fanlar fakulteti**
“Ekologiya va geografiya” kafedrasi

«O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» FANIDAN

**MUSTAQIL ISHI**

**Mavzu: Toshkent iqtisodiy rayoni**

**Geografiya o’qitish metodikasi ta’lim yo’nalishi 24-18-guruh talabasi**

**Norbo‘tayev Sardor tayyorladi**

Qabul qildi:
g.f.n., dotsent Xidiraliyev K.E.
Ish “ ” ballga himoya qilindi.
“____” _____2021 y.

Kafedra mudiri, g.f.n.
_____ L.Karshibayeva

**Guliston–2021**

Ilova-2

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish tartibi.

Mustaqil ishda adabiyotlar quyidagi tartibda keltirilish lozim:
– Rasmiy materiallar: qonunlar, Prezident qarorlari.
– Davlat boshlig'i asarlari;
– Monografiyalar, risolalar (alfavit tartibda) ;
– Jurnallar va gazetalardagi maqolalar;
– Dissertatsiyayalar va avtoreferatlar;
– Statistik ma'lumotnomalar va hisobiy ma'lumotlar;
– Xorijiy tillarda nashr etilgan adabiyotlar;

Ilova-3

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini bezatish na'munasi


1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Halq so'zi gazetasi. 2017 yil yanvar, №11.
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. "O'zbekiston" , 2017y.
4. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi, -T.: O'qituvchi, 1994.-209 b.
5. Maksakovskiy V.P. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira - M.: Prosveщenie, 2009 g.
6. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi). Toshkent, "Universitet", 2014.
7. Musayev P, Musaev J, "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" O'rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik T. "O'qituvchi" 2014y.
8. Vahobov H., Tillaboeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari. Toshkent. "O'qituvchi", 2001.

*Ilova-4*

**Mustaqil ish namunasi:**

**Mavzu: Toshkent iqtisodiy rayoni (Toshkent shahri)**

**Reja:**

**Kirish……..**
**I-Bob. Toshkent iqtisodiy rayoniga umumiy tabiiy geografik tavsif……...**
**1.1.Geografik o'rni……**
**1.2.Tabiiy sharoiti…….**
**1.3.Tabiiy resurslari**……..
**II-Bob. Toshkent iqtisodiy rayoniga umumiy iqtisodiy geografik tavsif……**
**2.1. Aholisi va mehnat resurslari……**
**2.2. Sanoati va qishloq xo'jaligi……**
**2.3. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqlari……..**
**Xulosa……..**
**Foydalanilgan adabiyotlar.....**

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Barchaga ma'lumki, Toshkent iqtisodiy rayoni nafaqat Respublikamizda balki Markaziy Osiyoning iqtisodiy-resurs, turistik rekreatsion salohiyoti jihatdan oldingi o'rinlarda turuvchi hudud hisoblanadi. Ushbu iqtisodiy rayonda yirik mineral resurslar konlari, sanoat korxonalari joylashgan. Shuningdek ushbu hududda yirik qishloq xo'jalik yerlari joylashgan. Aholi bandligi yahshi darajada ta'minlangan. Shunga qaramasdan mintaqada yechimini topmagan ayrim muammolar mavjud. Masalan ekologik muammolar, mavjud resurslardan oqilana foydalanish, to'liq turistik klaster barpo etish kabilar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib mazkur hududni kompleks o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu mustaqil ish mavzusi bugungi kunda dolzarb mavzu hisoblanadi.

**Mustaqil ishning maqsadi**: Qozog'iston Respublikasiga umumiy tabiiy va iqtisodiy geografik tavsif berishdan iborat.

**Mustaqil ishining vazifalari:**

- Geografik o'rniga baho berish
- Tabiiy sharoitini o'rganish
- Tabiiy resurslari va ulardan oqilona foydalanish muammolarinin tahlil qilish
- Toshkent iqtisodiy rayonining umumiy iqtisodiy geografik tavsif berish
- Aholisi va mehnat resurslarini o'rganish
- Sanoati va qishloq xo'jaligini tahlil qilish
- Transporti va tashqi iqtisodiy aloqlarini tahlil qilish

**Mustaqil ishning obyekti:** Toshkent viloyati va Toshkent shahri

## I-Bob. Toshkent iqtisodiy geografik rayoniga umumiy tabiiy geografik tavsif

### 1.1 Geografik o’rni

Toshkent iqtisodiy rayoni o‘z tarkibiga Toshkent viloyati va respublika poytaxti – Toshkent shahrini oladi. Maydoni 15,6 ming kv. km bo‘lib, O‘zbekiston hududining 3,5 foizini tashkil qiladi. Aholisi, 1 yanvar 2017 yilning ma’lumotlariga ko‘ra, 5 315.500 kishi (Toshkent viloyati 2 829.6; Toshkent shahri 2 485.900 kishi) yoki respublika jami aholisiga nisbatan 19,0 foiz demakdir.

Toshkent shahri. Toshkent shahri - mustaqil O‘zbekiston Respublikasining poytaxti, u 2200 yillik tarixga ega. Maydoni 334,8 kv.km aholisi 1 oktyabr 2018 yil ma’lumotlariga qaraganda, 2.485.900 kishi.

Toshkent ma’muriy jihatdan 11 ta shahar tumanlaridan tashkil topgan. Tarixiy rivojlanish jarayoni natijasida uning maydoni tobora kengayib bormoqda. Bunday hududiy rivojlanish dastlab sharqiy, ya’ni CHirchiq yo‘nalishida ko‘proq bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik u janub tomonga ham kengayib borgan.

Shahar hududida tashkil etilgan ma’muriy birliklardan dastlabkilari hozirgi Mirobod va Shayhontoxur tumanlari bo‘lib, ular 1929 yilda ajratilgan. Ulardan keyin Mirzo Ulug‘bek (1935 y.) hamda Yunusobod va Yakkasaroy tumanlari (1939 y.) tashkil qilingan. Eng so‘nggi tuman - Bektemir 1990 yilda vujudga kelgan. U avvalgi Narimonov shahri asosida, Toshkent shahrini Chirchiq daryosining so‘l sohiliga “sakrab” o‘tishi natijasida tashkil etilgan. Shuningdek, Toshkent shahar hokimiyatiga Ulug‘bek shaharchasi ham bo‘ysunadi.

### 1.2. Tabiiy sharoiti

**Tabiiy sharoiti**ga ko’ra Toshkent O‘zbekiston Respublikasining shimoli-sharqida, Tyanshan tizmasining g‘arbiy etaklarida, Chirchiq daryosi bo‘yida joylashgan. Uning sharqiy tomonida tog‘ tizmalarining mavjudligi, shimol va shimoli-g‘arb tomonga ochiqligi shahar iqlimining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shaharning dengiz sathidan o‘rtacha balandligi 440-480 metr bo‘lib, bunday topografik holat shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga tomon pasayib boradi. Eng baland nuqtasi 515 metr - shaharning Mirzo Ulug‘bek tumani hududida joylashgan.

Shahar iqlimi kontinental, ya’ni quruq - qishi ancha sovuq, yozi esa issiq. O‘rtacha yillik havo harorati 13,80, iyulniki 270, yanvar o‘rtacha harorati minus 10 atrofida. Yog‘in-sochin miqdori bir yilda 425 mm atrofida.

Toshkent shahrining tarixiy-geografik asosi yoki negizini CHirchiq daryosi va undan tarqalgan qator qadimgi va yangi kanallar tashkil qiladi. Ular jumlasiga Bo‘zsuv, Kaykovus, Qoraqamish, Salar, Bo‘rijar, Anhor, Qorasuv va boshqalar kiradi. Aynan shu gidrografik shaxobchalar shahar ichki tuzilishi, uning daha va mahallalarining asosida yotadi. Shaharning iqtisodiy va siyosiy geografik jihatdan va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan qulay transport-geografik o‘rinda joylashgan.

### 1.3. Tabiiy resurslar**i**

Iqtisodiy geografik rayon hududi relyefning xilma-xil shakllaridan iborat. Bu sanoat uchun ham, qishloq xo'jaligi uchun ham beqiyos qulayliklar yaratadi. Rayonning Chirchiq va Ohangaron vodiylari Sirdaryoga qadar 100-150 km dan ortiq masofada pasayib borishi sababli sun'iy sug'orish uchun g'oyat qulay. Chirchiq va Ohangaron daryolari tog'lardagi yog'in (500-700 mm) dan to'yinib, dalalarni

sug'orishdan tashqari elektr energiya olishda ham muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy geografik rayon toza ichimlik suvi bilan yaxshi ta'minlangan. Suvdan yanada samarali foydalanish maqsadida Chirchiq daryosining yuqori oqimida sig'imi 2,0 mlrd m kub bo'lgan Chorvoq suv ombori barpo etilgan. Shuningdek, Ohangaron daryosining o`rta oqimida Tuyabug`iz suv ombori ("Toshkent dengizi") qurilgan.

Qazilma boyliklarning xilma-xilligi jihatidan bironta rayon Toshkent iqtisodiy geografik rayoniga tenglasha olmaydi. Angren ko'mir havzasi mamlakatda eng yirik ko'mir koni hisoblanadi (ko'mir zaxirasi miqdorini eslang). Ko'mir qatlamlari yer yuziga yaqin joylashgan bo'lib, qatlamlar orasida aluminiy, sement va keramika olishda ishlatiladigan gilmoya ko'plab uchraydi (atlasdan foydalanib, qazilma konlarini aniqlang). Iqtisodiy geografik rayonda neft bilan tabiiy gazgina yo'q. Zarur bo'lgan neft mahsulotlari temiryo'l hamda avtomobil transportida, gaz esa quvurda keltirilmoqda.

## II-Bob. Qozog'iston Respublikasiga umumiy iqtisodiy geografik tavsii

### 2.1. Aholisi va mehnat resurslari

Toshkent shahri aholisi soni bo‘yicha MDH mamlakatlarida 4 - (Moskva, Sank-Peterburg va Kiev shaharlaridan keyingi) o‘rinda turadi, Markaziy Osiyo mintaqasida esa unga teng shahar yo‘q.

Bu yerda sobiq Rossiya imperiyasida o‘tkazilgan dastlabki aholi ro‘yxati – 1897 yil ma’lumotlari bo‘yicha 156,0 ming aholi yashagan. 1966 yilda, ya’ni Toshkent zilzilasi arafasida shaharda 1209 ming kishi yashagan.

Shahar aholisi 2 millionlik “marraga” 1984 yil yakunida erishgan.

Ma’lumki, shahar aholisi yiliga o‘rtacha 27,5 ming kishiga ko‘paymoqda.

Hozirgi kunda o‘zining katta demografik salohiyati bo‘yicha Olmazor, Yunusobod va Shayhontohur tumanlari yetakchilik qiladi. Aholi sonining eng kam miqdori esa Bektemir tumanida - 29,3 ming kishi. O‘rtacha har bir tumanga 208,8 ming kishidan aholi to‘g‘ri keladi.

Shahar bo‘yicha har bir kv. km maydonida 6714 kishi joylashgan bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich SHayhontohur (10805 kishi) va Olmazor (9133 kishi), ya’ni shaharning qadimiy, eski qismida qayd etiladi. Ayni paytda shaharning nisbatan yangi tashkil qilingan tumanlarida – Sergeli va Bektemirda aholi zichligi o‘rtachadan ancha past.

Aholi tabiiy harakatining yakuniy ko‘rsatkichi, ya’ni uning tabiiy ko‘payishi asosan tug‘ilish darajasidagi farqlarni takrorlaydi. Binobarin, u Olmazor, Shayhontohur va Bektemir tumanlarida yuqoriroq, Yashnaobod, Yakkasaroy va Mirzo Ulug‘bek tumanlarida pastroq darajaga ega. Ba’zi tumanlarda aholining tabiiy ko‘payishi 10-16 promilleni yoki 1,0-1,6 foizni tashkil qiladi.

Migratsiya Toshkent aholisining o‘sishida yetakchi omil hisoblangan. Toshkent shahriga 1996 yilda 32,7 ming kishi kelgan, 35,0 ming kishi ketgan; migratsiya qoldig‘i (saldosi) minus 2,3 ming kishini tashkil qilgan. 1998 yilda bu ko‘rsatkichlar mos holda, 32,0; 31,1 va plyus 0,9 ming kishi (shu yilda oz bo‘lsada migratsiya ijobiy saldoga ega bo‘lgan).

2006 yilda Toshkent shahriga keluvchilar 24,8 ming, ketganlar 21,1 ming kishini tashkil qilgan.

Toshkent shahri aholisi migratsiyasining salbiy oqibatlari, asosan, rusiyzabon va boshqa g‘ayri mahalliy millat vakillarining o‘zlarining avvalgi yurtlariga ko‘chib ketishi tufayli yuzaga kelgan. Masalan, birgina 2004 yilda jami 17,1 ming migratsiya qoldig‘ining 13,4 ming kishisini yoki 78,4 foizini ruslar tashkil qilgan. Shuningdek, tatar, koreys, qozoq, ukrain kabi millat vakillari ham ko‘proq ko‘chib ketishgan.

Keyingi yillarda vaziyat quyidagicha bo‘lgan: 2006 yilda bu raqamlar 65,2 va 3,6 ming kishiga teng bo‘lgan.

Aholining tabiiy va mexanik harakati ta’sirida uning milliy tarkibi shakllanadi. Toshkent ko‘p millatli aholiga ega bo‘lgan shahar hisoblanadi. 2017 yil ma’lumotlariga qaraganda, o‘zbeklar jami shahar aholisining 68,3 foizini, ruslar 18,1 %, tatarlar 4,1 % ni tashkil qiladi.

Toshkent shahrida 1.01.2017 yilda 1606,5 ming mehnatga layoqatli yoshdagi aholi qayd etilgan (jami aholining 62,6 %). Iqtisodiy faol aholi soni 1398,0 ming, iqtisodiyotda band aholi soni 1353,8 ming kishi.

Mehnat resurslari iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan, sanoat, qurilish, transport va aloqa hamda turli xil ijtimoiy sohalarda band.

## 2.2. Sanoati va qishloq xo’jaligi

Ma’lumki, poytaxt shaharlar, odatda, o‘ziga xos (“poytaxtga xos”) vazifalarni bajaradi. Toshkent shahri poytaxtlik funksiyasini 1930 yildan boshlab bajarib kelmoqda.

Toshkent katta shahar – megapolis, u respublikaning asosiy iqtisodiy, madaniy, siyosiy markazi, shahar, eng avvalo, ko‘p sonli aholining yashash, ya’ni sotsial muhiti, shu bilan birga u yagona iqtisodiy makon, investitsiya, innovatsiya, o‘ziga xos geoekologik (urboekologik), nozogeografik muhit hamdir.

Xalqaro miqyosda, jahon hamjamiyati va geosiyosiy tizimida mustaqil O‘zbekiston Respublikasi ko‘pincha “Toshkent” nomi bilan taniladi va e’tirof etiladi.

Toshkent shahri mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida ko‘zga ko‘rinarli mavqega ega. Jumladan, 2017 yilda u respublikaning 17,9 foiz yalpi hududiy mahsuloti, 19,8 foizi sanoat ishlab chiqarishini ta’minlagan. Chakana savdoda uning ulushi 26,6 %, pullik xizmatlarda 34,5 %, eksportda 39,0 % va importda 49,1 %. Mamlakat bo‘yicha jami investitsiya hajmining 25,1 foizi, qurilish ishlarining 18,4 foizi aynan Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, iqtisodiyot tizimida bozor munosabatlarini shakllantirishda kichik biznesning o‘rni va ahamiyati juda katta. 2017 yilda Toshkent shahrida jami 38298 ta faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari ro‘yxatga olingan. KB va XT sub’ektlarining turli sohalardagi ulushi quyidagicha: YAHM da 49,9 %, sanoat ishlab chiqarishida 39,0 %, qurilishda 45,8 %, chakana savdoda 49,3 %, xizmat ko‘rsatishda 30,2 %. Ushbu sektorga iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 55,2 foizi, mamlakat eksportining 13,7 va importining 47,1 foizi to‘g‘ri kelgan.

Sanoati. Toshkent sanoati ko‘p yillar davomida shakllangan. Uning darajasi va tarmoqlar tarkibiga shaharning geografik o‘rni, mehnat va innovatsiya salohiyati, Ikkinchi jahon urushi yillarida front chiziqlaridan evakuatsiya qilingan sanoat korxonalari, shuningdek, yaqin atrofdagi tabiiy resurslar (qurilish materiallari xom ashyosi, suv resurslari va b.) o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Shaharda jami 6181 ta turli yiriklikdagi sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatgan. Ularning 145 tasi yirik sanoat korxonalari hisoblanadi; sanoat ishlab chiqarishida band bo‘lganlarning umumiy soni 133,8 ming kishi.

**1-jadval**

**Toshkent shahri sanoatining tarmoqlar tarkibi**

| Sanoat tarmoqlari | Jamiga nisbatan foizda | | 2000-2016 yillarda o‘zgarish, +,- |
|---|---|---|---|
| | 2000 yil | 2016 yil | |
| Jami sanoat tarmoqlari | 100 | 100 | - |
| shu jumladan: | | | |
| yoqilg‘i-energetika* | - | 19,5 | - |
| Metallurgiya | 1,5 | 4,0 | +2,5 |
| kimyo va neft kimyosi | 10,2 | 7,2 | -3,0 |
| mashinasozlik va metalni qayta ishlash | 27,9 | 22,7 | -5,2 |
| qurilish materiallari sanoati | 3,7 | 4,6 | +0,9 |
| o‘rmon, sellyuloza-qog‘oz sanoati | 3,9 | 2,7 | -1,2 |
| engil sanoat | 11,4 | 6,4 | -5,0 |
| oziq - ovqat sanoati | 24,3 | 23,1 | -1,2 |
| un, krupa va omuxta em sanoati | 6,8 | 1,6 | -5,2 |
| poligrafiya sanoati | 6,1 | 4,1 | -2,0 |
| farmatsevtika sanoati | 1,4 | 2,5 | +1,1 |
| boshqa sanoat tarmoqlari | 2,8 | 1,6 | -1,2 |

1-jadval ma’lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, keyingi 10 yilga yaqin davrda poytaxt sanoati tarmoq tarkibida ancha o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Masalan, metallurgiyaning ulushi ortgan, farmatsevtika va qurilish materiallari sanoati ham ustuvorroq rivojlanib borgan.

Sanoat tarmoqlari miqyosida alohida korxonalarning ahamiyati har xil. Chunonchi, yoqilg‘i sanoati mahsulotining 90,0 foizini “Lukoyl O‘zbekiston opereyting kompaniyasi” MCHJ beradi. Metallurgiya sanoatida esa Toshkent truba zavodi (65,4 %) hamda Ikkilamchi qora va rangli metallar korxonalarining o‘rni katta. SHahar kimyo va neft kimyosi sanoatida Toshkent lok-bo‘yoq va “Olplast” qo‘shma korxonasi, mashinasozlik va metallni qayta ishlashda “O‘zelektroapparat”, “O‘zbekkabel” va “Doyche kabel” qo‘shma korxonalari yetakchilik qilishadi. Shu bilan birga, mazkur tarmoqda Toshkent traktor zavodi, “Zenit elektroniks” qo‘shma korxonasi, Toshkent yo‘lovchi vagonlarni ta’mirlash, “O‘zbekiston airvays texniks” kabi korxonalar ham o‘zlarining salmoqli mahsulot hajmlari bilan ajralib turishadi.

Yengil sanoatning as;osiy korxonalari “BF-tekstil-Prodakshn”, “Baytekstisaret”, “Muruvvat-teks” va boshqalar hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatida “Koka-kola ichimliklari”, “UZCARSBERG” qo‘shma korxonalari yog‘-moy, vino va shampan ishlab chiqaruvchi korxonalar ta’minlaydi. SHuningdek, tarmoq jami mahsulotning 30,0 foizini beruvchi “Xorazm shakar” qo‘shma korxonasi hamda Samarqand choy fabrikasi ham moliyaviy-iqtisodiy jihatdan Toshkent shahri tasarrufida faoliyat ko‘rsatishadi.

Un-krupa va kombikorm “G‘alla Altek” va “Toshkent don mahsulot” aksionerlik jamiyatlarida ishlab chiqariladi. Farmatsevtika sanoatida esa “Jo‘rabek laboratoris”, “UP Radiks”, “Nobel-Farmsanoat” korxonalari muhim ahamiyatga ega. Bu korxonalar jami tarmoq mahsulotining 35,7 foizini beradi. Poligrafiya sanoatida “Sharq” AJ va “O‘qituvchi” nashriyotlari oldinda turadi.

2017 yilda Toshkent sanoat korxonalari tomonidan 782 tonna atrofida po‘lat, 71 tonna po‘lat quvurlar ishlab chiqarilgan. YUqoridagilardan tashqari, shaharda bir yilda o‘rtacha 20-25 dona ko‘tarma kranlar, 1600-2500 dona traktor pritseplari, 2500-2700 ta atrofida traktor, 50 ming tonnadan ziyod lok-bo‘yoq materiallari tayyorlanadi.

Asosiy iste’mol tovarlaridan 77,4 ming tonna omuxta em, 10,6 ming dona dazmollar, 52,1 ming tonna xo‘jalik sovuni, o‘rtacha 60-85 ming rangli televizorlar, ko‘p miqdorda mebellar ishlab chiqariladi. Bir yilda 80-85 ming dona trikotaj mahsulotlari, 10-15 ming juft paypoq, 15-20 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i, 1,7-1,8 ming tonna go‘sht va 10-12 ming tonna sut mahsulotlari, 275-285 ming tonna shakar, 205-208 ming tonna oralig‘ida un tayyorlanadi.

Ayni vaqtda mebel, maishiy qandillar, poyabzal, mineral suv, uzum sharbati, pivo, makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish so‘nggi yillarda ancha tez o‘sgan.

**Ijtimoiy sohalar.** Shaharlar, xususan, yirik shaharlar, eng avvalo, aholi yashaydigan joy, sotsial muhit hisoblanadi. Bu makonda kishilar dam oladi, davolanadi, o‘qiydi, xullas yashaydi. Shu bois, ijtimoiy sohalarning rivojlanishi ham katta ahamiyatga ega. Bu sohalar, o‘z navbatida, murakkab bo‘lib, ular ta’lim, sog‘liqni saqlash, maishiy xizmat ko‘rsatish kabilarni ichiga oladi:

- Ayniqsa, chakana savdoda Bektemir tumani keskin ajralib turadi, pullik xizmatlarning nisbiy ko‘rsatkichlarida esa Mirobod va Yakkasaroy tumanlari oldinda.

Chakana savdo hajmining 16,9 foizi birgina Ccilonzor tumaniga to‘g‘ri keladi; Bektemirda bu ko‘rsatkich 13,7 %, Shayhontohurda 12,3 %, Uchtepada 10,6 %.

Shaharning turli joylarida katta-katta bozor va yarmarkalar tashkil etilgan: Qo‘yliq, Farhod, Parkent, Chorsu, Oloy, Yunusobod, Sergeli va boshqalar shular jumlasidandir.

Pullik xizmatlarda Mirobod tumani oldinda 20,0 %, shuningdek, Olmazor (16,0 %), Yakkasaroy (12,0 %) tumanlarining ham ulushlari katta.

Markazlashgan suv ta’minoti shahar bo‘yicha 99,7 %, tabiiy gaz bilan ta’minlanish 99,7 %;

- Shahar sog‘liqni saqlash tizimida 110 ta tibbiy muassasalar bor; har 10 ming kishiga to‘g‘ri keladigan bemor o‘rinlari 84,5 ta (2000 yilda 80,9).

Shahar bo‘yicha har 10 ming aholiga 63,1 ta vrachlar va 124,6 ta o‘rta meditsina xodimlari xizmat ko‘rsatishadi;

- Toshkentda jami 550 ga yaqin doimiy maktabgacha tarbiya muassasalari, 330 dan ko‘proq umumta’lim maktablari bor. O‘rtacha bir maktabga 988 nafar o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Bu raqam respublika boshqa mintaqalariga qaraganda ancha yuqori. Ko‘plab akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida 100 minglab talaba o‘qiydi;

- Toshkent yirik fan va oliy ta’lim markazi hisoblanadi. Bu yerda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va uning qator ilmiy tadqiqot institutlari joylashgan.

Shuningdek, ko‘plab ixtisoslashgan ilmiy tekshirish va loyihalash institutlari ham faoliyat ko‘rsatadi.

Respublikamiz poytaxtida 37 ta oliy o‘quv yurtlari bor. Ular jumlasiga Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent texnika, iqtisodiyot, Islom, jahon iqtisodiyoti va diplomatiya, Jahon tillari, Agrar universitetlari, Tibbiyot akademiyasi va boshqalar kiradi. Bulardan tashqari, Toshkentda 7 ta xorijiy mamlakatlar oliy o‘quv yurtlarining filiallari:

1. Vestministr halqora universiteti(BB)
2. Singapur menedjmentni rivojlantirish instituti (Singapur)
3. Inxa universiteti (J.Koreya)
4. M.V.Lomonosov nomidagi MDU
5. I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti
6. G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyoti universiteti
7. Turin politexnika instituti(Italiya)) faoliyat olib bormoqda. Ularda 297 689 ming talaba tahsil oladi.

- Ayni vaqtda Toshkentda turistik industriya ham rivojlanib bormoqda. SHaharda sayyohlik uchun 40 ga yaqin zamonaviy mehmonxonalar mavjud, ular bir yilda 250-255 ming turistlarga xizmat ko‘rsatishadi.

**Transporti.** Maydoni katta, aholi soni ko‘p bo‘lgan shaharda transport muhim rol o‘ynaydi. Toshkentda transportning barcha turlari – poezd, avtobus, metropoliten mavjud. Markaziy Osiyodagi dastlabki Toshkent metrosi 1977 yilda ishga tushirilgan.

Yiliga barcha transport turlari bo‘yicha yo‘lovchilar tashish 1397 mln kishini tashkil etadi.

Shaharga temir yo‘l transport tarmog‘ining kirib kelishi va unda passajir va yuklarning tashish darajasi ham o‘rinlidir. YAngi-yangi temir yo‘l vakzallarning qayta ta’mirlanib ishga tushishi va metroning 3 ta yo‘nalishidagi (Yunusobod va Chilonzordagi Sergili ) bekatlarning qurilishi shaharda transport tarmog‘ining o‘sishini bildiradi.

**Tashqi iqtisodiy aloqalar.** Toshkent shahri O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarida faol qatnashadi. Jami 3624 ta qo‘shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Birgina 2017 yilda 535 ta yangidan qo‘shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Mutloq raqamlarda shaharning tashqi savdo aylanmasi 2017 yilda 9189,2 mlrd. AQSH dollar, shu jumladan, eksport 4954,3, import 4234,9 mln. dollar. Oldingi yilga nisbatan o‘sish tashqi savdo aylanmasida 103,4 %, eksportda 144,5 %, importda esa kamayish yuz bergan (77,6 %).

Eksport tarkibida energiya resurslari 61,3 %, xizmatlar – 20,2 %, oziq-ovqat mahsulotlari 8,9 foizni tashkil qiladi. Importda yuqori ko‘rsatkichlar mashina va uskunalar (36,3 %), kimyo sanoati mahsulotlariga (19,2 %) to‘g‘ri keladi. Oziq-ovqat hamda qora va rangli metallarning ham ulushi biroz ko‘zga ko‘rinarli darajada. Shu o‘rinda qayd etish lozimki, ko‘rilayotgan yilda import ko‘rsatkichlarining kamayishi asosan mashina va uskunalar hamda energiya resurslari hisobidan yuzaga kelgan.

Toshkent shahri tashqi iqtisodiy aloqalarining ko‘proq qismi MDH mamlakatlari bilan amalga oshiriladi. Ularning hissasi eksportda 79,7 %, importda 38,1 %, jami tashqi savdo aylanmasida 60,5 %. Ushbu davlatlarga qilingan eksportda energiya resurslari, xizmatlar va oziq-ovqat mahsulotlari, importda qora va rangli metallar,

mashina va uskunalar hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosiy qismni tashkil qiladi. “Uzoq xorij” mamlakatlariga tovarlarni eksport qilishda ham xuddi shunday vaziyat kuzatiladi.

Poytaxtda xorijiy investitsiyalar yordamida tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar 3624 ta. Ular shahar eksportining 1/5 qismiga yaqinini ta’minlaydi. Shahar tashqi iqtisodiy aloqalarining hududiy tarkibida eng yuqori o‘rinni Yakkasaroy tumani egallaydi – 59,4 %. Mirobod tumanining ulushi 20,1 %. Faqat shu ikki tumanlar shahar tashqi savdosining deyarli 4/5 qismini ta’minlaydi. Qolgan hududlar orasida Mirzo Ulug‘bek, Yunusobod va Yashnaobod tumanlari biroz ajralib turadi.

Importning 1/4 qismidan ko‘prog‘i Mirobod, 13,7 foizi Chilonzor, 10,9 foizi Shayhontohur va 10,6 foizi Yunusobod tumaniga to‘g‘ri keladi. Eksportda eng past ko‘rsatkichlar Bektemir, Chilonzor va, importda esa bunday sust mavqe Bektemir va Uchtepa tumanlarida qayd etiladi.

Toshkentdek ulkan megapolisning o‘z atrofi bilan yaqindan aloqada rivojlanishi tabiiy hol. Chunki, shahar aholisini qishloq xo‘jalik mahsulotlari, dam olish, dala hovli hududlari bilan ta’minlaydigan yaqin atroflari bo‘lishi shart. Bunday vazifani Toshkent, Zangiota va Qibray tumanlari bajaradi. Qolaversa, ularda Toshkent shahriga xizmat qiluvchi omborxonalar, bozorlar, podstansiyalar, dam olish zonalari, shuningdek, qadamjo va qabristonlar ham joylashgan.

## TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. **Olmaliq tog’-kon metallurgiya kombinati** – O‘zbekistonda rangli metallurgiya sanoatining yirik korxonasi. K-t 2 majmuadan — qo‘rg‘oshin-rux (Qo‘rg‘oshinkon, Oltintopgan, Sardoba va Chalata konlari, qo‘rg‘oshin-rux boyitish f-kasi va rux zavodi) hamda mis eritish majmuasidan (Qalmoqqir koni, mis boyitish f-kasi, mis zavodi)dan iborat.
2. **Ochiq usulda qazib chiqarish** – yer yuzasiga yaqin joylashgan ayrim mineral boyliklarni, ustki qatlamlarni olib tashlab, zamonaviy texnik vositalar yordamida qazib chiqarish. Hozirgi davrda ko‘mir, temir rudasi, ayrim rangdor metallar, kimyoviy va qurilish materiallaridan iborat minerallar shu yo‘l bilan qazib olinmoqda. Odatda ularning tannarxi shaxta usulida qazib chiqarganga nisbatan ko‘p martalab arzonga tushadi.
4. **Og‘ir sanoat** – asosan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan tarmoqlardan iboratdir, ya’ni unda mexnat qurollari (mashinalar, jihozlar va h.k.) va mehnat predmetlari (xom ashyo, yoqilg‘i va h.k.) ishlab chiqariladi.
5. **Sanoat markazi** – bir yoki birnecha sanoat tarmoqlari to‘plangan shahar yoki shaharchalardir.
6. **Energiya tizimi** – iste’molchilarni elektr energiyasi bilan ta’minlashda qatnashadigan va bir-biri bilan elektr liniyalari bilan bog‘langan yirik elektr stansiyalar birlashmasi.

## Xulosa

XXI asr, shubhasiz, xalqaro munasabatlarda butun dunyoni qamrab oladigan asr bo‘ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlar davrasini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozasi deb emas,

balki ayrim davlatlarda ham, shuningdek, umuman, butun sayyoramiz ko‘lamida sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili, deb hisoblamoq zarur.

Jumladan men tadqiq Toshkent iqtisodiy rayoni Respublikamizdagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlangan hudud hisoblanadi. O’tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi umumnazariy va metodik xulosalarga kelindi.

1. Toshkent iqtisodiy rayoni Tyan-Shanning g‘arbiy yonbag‘irlaridan boshlanib Sirdaryo etaklariga tushadigan keng tog‘oldi tekisligining bir qismida joylashgan.

2. Iqtisodiy geografik rayon hududi relyefning xilma-xil shakllaridan iborat. Bu sanoat uchun ham, qishloq xo'jaligi uchun ham beqiyos qulayliklar yaratadi.

3. Toshkentda transportning barcha turlari – poezd, avtobus, metropoliten mavjud. Markaziy Osiyodagi dastlabki Toshkent metrosi 1977 yilda ishga tushirilgan.

4. Toshkent katta shahar – megapolis, u respublikaning asosiy iqtisodiy, madaniy, siyosiy markazi, shahar, eng avvalo, ko‘p sonli aholining yashash, ya’ni sotsial muhiti, shu bilan birga u yagona iqtisodiy makon, investitsiya, innovatsiya, o‘ziga xos geoekologik (urboekologik), nozogeografik muhit hamdir.

5. Toshkent shahri O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarida faol qatnashadi. Jami 3624 ta qo‘shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Birgina 2017 yilda 535 ta yangidan qo‘shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Mutloq raqamlarda shaharning tashqi savdo aylanmasi 2017 yilda 9189,2 mlrd. AQSH dollar, shu jumladan, eksport 4954,3, import 4234,9 mln. dollar. Oldingi yilga nisbatan o‘sish tashqi savdo aylanmasida 103,4 %, eksportda 144,5 %, importda esa kamayish yuz bergan (77,6 %).

6. Toshkent shahri tashqi iqtisodiy aloqalarining ko‘proq qismi MDH mamlakatlari bilan amalga oshiriladi. Ularning hissasi eksportda 79,7 %, importda 38,1 %, jami tashqi savdo aylanmasida 60,5 %.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo‘g’rofiyasi, -T.: O‘qituvchi, 1994.-209 b.
2. Maksakovskiy V.P. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira - M.: Prosveщenie, 2009 g.
3. Soliyev A. O‘zbekiston geografiyasi (O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi). Toshkent, ”Universitet”, 2014.
4. Musayev P, Musaev J, “O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” O‘rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik T. “O‘qituvchi” 2014y.
5. Vahobov H., Tillaboeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari. Toshkent. "O‘qituvchi", 2001 Internet manbalari:
6. www.ziyonet.uz
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent#Geografik_joylashishi

**Quyidagi mavzuga oid inglizcha atamalarning o’zbekcha tarjimasini toping.**
Landlocked country, provinces, market economy, foreign trade policy, import substitution, cotton, open-pit gold mine, natural gas, country's energy sector, hydroelectricity, solar energy.

## MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TEST SAVOLLARI

1. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining tarkib topish boskichlarini necha davrga bulish mumkin?
A) 3. V) 4. S) 5 D) 6.

2. O`zbekiston SSR qachon tashkil topgan?
A) 1920 yil 27 oktyabrda. V) 1932 yil 27 sentyabrda.
S) 1922 yil 27 oktyabrda D) 1924 yil 27 oktyabrda.

3. O'zbekiston Respublikasi maydoni jixatdan jaxonda nechanchi o'rinni egallaydi?
A) 45. V) 50. S) 58. D) 56.

4. O'zbekiston Respublikasi aholii soni jixatdan jahonda qaysi o'rinni egallaydi?
A) 28. V) 38. S) 48. D) 58.

5. Hozirgi paytda Respublikamizda qancha neft va gaz konlari mavjud?
A) 80. V) 100. S) 130. D) 150.

6. O'zbekistonda qancha temir ruda konlari aniqlangan?
A) 30 dan ortiq. V) 40 dan ortiq.
S) 50 dan ortiq. D) 60 dan ortiq.

7. O'zbekistonda qancha marmar koni aniqlangan?
A) 6. V) 10 S) 15 D) 20

8. Xozirgi vaqtda O'zbekistonda qancha shahar mavjud?
A) 110 ta. V) 120 ta. S) 130 ta. D) 140 ta.
9. O'zbekiston gaz qazib chqarish bo'yicha MDXda nechanchi o'rinda turadi?
A) 8. V) 7. S) 2. D) 5.

10. Kukdumalok konida nima kazib chikariladi?
A) Neft. V) Oltin. S) Gaz. D) Volfram.

11. Fargona neftni qayta ishlash zavodi qaysi davlat Bilan hamkorlikda ishlaydi?
A) Germaniya. V) Turkiya.
S) Fransiya. D) Yaponiya.

12. Toshkentdagi Bo'zsuv GESi qachon ishga tushirilgan?
A) 1925y. V) 1926 y. S) 1927y. D) 1928y.

13. Chirchiq Bo'zsuv tizimidaq GES barpo etilgan?
A) 15 ta. V) 16 ta. S) 17 ta. D) 19 ta.

14. Qiyin eriydigan va issiqqa chidamli MDXdagi eng yirik kombinat qaysi shaxarda barpo etilgan?
A) Begobod. V) Chirchik. S) Navoiy. D) Toshkent.

15. O'zbekistonda azotli ug'itlar qaysi shaxarlarda ishlab chiqariladi?
A) Samarqand, Denov, Buxoro. V) Margilon, Guliston, Qo'ng'irot.
S) Chirchik, Farg'ona, Navoiy. D) Angren, Zarafshon, Qorovulbozor

16. Plastik mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar qaysi shaharlarda joylashgan?
A) Jizzax, Olmaliq, Toshkent. V) Jizzax, Samarqand, Yangiyo'l.
S) Jizzax, Farg'ona, Nukus. D) Angren, Termiz, Andijon.

17. Qashkadaryo iqtisodiy rayonining qaysi shaharlari atrofida sabzovotchilik va bogdorchilikka ixtisoslashgan?
A) Qarshi, Koson, Tolimarjon. V) Kitob, SHaxrisabz, Yakkabog.
S) Qamashi, Guzor, Beshkent. D) Muborak, Qarshi, Guzor.

18. O'zbekistonda 1998 yilda qancha miqdorda tabiiy gaz qazib chiqiladi?
A) 38200 mln. kub.m. V) 32480 mln. kub.m.
S) 40761 mln. kub.m. D) 54843 mln. kub.m.

19. Angren GRESi yiliga qancha elektroenergiya ishlab chiqaradi?
A) 830 ming kVt. V) 600 ming kVt.
S) 2,4 mln. kVt. D) 348 ming kVt 20ta.

20. «Zarafshon-Nyumon» qo'shma korxonasi qaysi davlat Bilan hamkorlikda ishlaydi?
A) Yaponiya. V) AQSH. S) Shveytsariya. D)Buyuk Britaniya.

21. Respublikamizda jami xaydaladigan –ishlov beriladigan yerlarning maydoni qancha?
A) 4,5 mln.Ga. V) 4,5 mln.Ga. S) 4,5 mln.Ga. D) 4,5 mln.Ga.

22. Respublikamizda hozirgi vaqtda qancha suv omborlari qurilgan?
A) 30 ga yaqin. V) 40ka yaqin. S) 50ka yaqin. D) 60 ga yaqin.

23. O'zbekistonda transformatorlar ishlab chiqaradigan korxonalar qaysi shaharlarda ishlamoqda?
A) Angren, Guliston. V) Samarqand, Kitob.
S) Navoiy, Jizzax. D) Chirchik, Namangan.
24. O'zbekistonda qaysi viloyat tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan?
A) Surxondaryo. V) Qashqadaryo. S) Jizzax. D) Samarqand.

25. O'zbekistonda qand lavlagiga ixtisoslashgan viloyat qaysi?

A) Andijon. V) Toshkent. S) Jizzax. D) Quyi Amudaryo.

26. Respublikamizning qaysi qismida olma, nok, behi ko'plab yetishtiriladi?
A) Shimoliy. V) shimoliy-sharqiy. S) Janubiy. D)Markaziy.

27. O'zbekistonda dastlabki ip-gazlama qachon vaqayerda yetishtirilgan?
A) 1930 yil Fargonada. V) 1928 yil Marg'ilonda.
S) 1920 yil Qo'qonda. D) 1912 yil Toshkentda.

28. Trikotaj sanoatining asosiy markazlarini kursating.
A) Navoiy, Andijon. V) Pop, Qo'qon.
S) Toshkent, Samarqand. D) Namangan, Qarshi.

29. Qorako'l terilariga ishlov beruvchi yirik fabrikani belgilang.
A) Nukus. V) Qarshi. S) Navoiy. D) Buxoro.

30. To'ytepadagi to'qimachilik kombinati qaysi davlat bilan hamkorlikda ishlaydi?
A) Janubiy Koreya. V) Turkiya.
S) AQSH. D) Shveytsariya.

31. «Sovplastital» qo'shma korxonasi qaysi shaharda joylashgan.?
A) Jizzax. V) Toshkent.
S) Samarqand. D) Guliston.

32. Toshkent iqtisodiy rayonining maydoni qancha?
A) 16,4 ming kv.km. V) 19,2 ming kv.km.
S) 25,6 ming kv.km. D) 15,6 ming kv.km.

33. O'zbekistonda g'alla ekinlarini yetishtirishdaq viloyatlar yyetakchilik qiladi?
A) Xorazm, Jizzax, Navoiy V) Toshkent, Namangan, Andijon.
S) Qashqadaryo, Samarqand, Andijon D) Farg'ona, Surxondaryo,

34. O'zbekistonda asosiy qand lavlagi yetishtirib beradigan viloyatni ko'rsating.
A) Toshkent. V) Samarqand.
S) Quyi Amudaryo. D) Surxondaryo.

35. O'zbekistonda asosiy sholi yetkazib beradigan iqtisodiy rayonni ko'rsating.
A) Jizzax. V) Andijon.
S) Toshkent. D) Quyi Amudaryo.

36. O'zbekistonda gilam-polos maxsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarni ko'rsating.
A) Yangiyo'l, Andijon. V) Xiva, Olmaliq.
S) Samarqand, Qo'qon. D) Toshkent, Chirchiq.

37. O’zbekistonda qancha neft va gaz mintaqasini ajratish mumkin?
A) 3. V) 4. S) 5. D) 6.

38.O’zbekstonda KRdan tashqari maydoni jixatdan eng katta viloyat qaysi?
A) Buxoro. V) Samarqand.
S) Jizzax. D) Navoiy.

39. Toshkent viloyatidagi yirik rangli metallurgiya markazini ko’rsating.
A) Angren. V) Olmaliq. S) Chirchiq. D) Bekobod.

40. Samarqand iqtisodiy rayonining qaysi qismida cho’l-yaylov chorvachiligi rivojlangan?
A) Janubiy-Garbiy. V) Shimoliy.
S) Sharqiy. D) Janubiy-Sharqiy.

## QASHQADARYO IQTISODIY RAYONI BO’YICHA NOSTANDART TESTLAR

**1. Suratga qarab quyidagi Qashqadaryo viloyatida joylashgan tumanlar nomini aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.**

*1)Qarshi 2)G’uzor 3) Kasbi 4)Chiroqchi 5) Dehqonobod*

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
|  |  |  | | |
| **?** | **?** | **?** | **?** | **?** |

*Javobi.*

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
|  |  |  | | |
| **5** | **4** | **2** | **1** | **3** |

**2. Rasmda berilgan Qashqadaryo viloyati tumanlariga mos raqamlarni yozing.**




| tumanlar | Raqamlar |
|---|---|
| Kitob | 2 |
| Shaxrisabz | 3 |
| Qamashi | 5 |
| Dehqonobod | 6 |
| Chiroqchi | 1 |
| G’uzor | 7 |
| Nishon | 8 |
| Koson | 13 |
| Kasbi | 10 |
| Yakkabog’ | 4 |
| Mirishkor | 11 |
| Muborak | 12 |
| Qarshi | 9 |
| | |

**3. Suratga qarab quyidagi Qashqadaryo viloyatida joylashgan qadimiy yodgorliklarni aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.**
*1)Kasbidagi sardoba 2) Xo’jai jarroh ziyoratgohi 3) Shaxrisabzdagi Oqsaroy 4)Ko’kgumbaz masjidi 5) Qashqadaryoda qurilgan ko’prik*

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| |  | | | |
| *Javobi* | | | | |
| **?** | **?** | **?** | **?** | **?** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
|  |  | | | |
| *Javobi* | | | | |
| **5** | **4** | **2** | **1** | **3** |

**4. Maydoniga ko'ra yirik viloyatlarni ketma-ketligini mos raqamlarini yozing.**

| **Viloyatlar** | **Raqamlar** |
|---|---|
| **Navoiy** | |
| **Buxoro** | |
| **Qashqadaryo** | |
| **Jizzax** | |
| **Surxondaryo** | |
| **Samarqand** | |
| **Toshkent** | |
| **Namangan** | |
| **Farg'ona** | |
| **Xorazm** | |
| **Andijon** | |

**Javobi:**

| **Viloyatlar** | **Raqamlar** |
|---|---|
| Surxondaryo | 5 |
| Samarqand | 6 |

| | |
|---|---|
| Navoiy | 1 |
| Buxoro | 2 |
| Qashqadaryo | 3 |
| Jizzax | 4 |
| Toshkent | 7 |
| Namangan | 8 |
| Andijon | 11 |
| Xorazm | 10 |
| Farg'ona | 9 |

**5. Geografik atamalarni ularning ta'riflari bilan juftlang.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | **Qarshi** | A | Shahar turmush tarzining keng yoyilish jarayoni |
| 2 | **Urbanizatsiya** | V | Shaharlarning yirik shahar atrofida to'planishi |
| 3 | **Shaxrisabz** | C | Bu shahar Oqsuv daryosi o'zanidan 3-4 km janubroqda dengiz sathidan 650 m balabdlikda joylashgan |
| 4 | **Aglomeratsiya** | D | Qashqadaryo viloyatining markazi, O'zbekistondagi yirik shaharlardan biri,ma'muriy,iqtisodiy,sanoat markazi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Javob: | 1-D | 2 –A | 3 - C | 4 – V |

**6. Geografik atamalarni ularning ta'riflari bilan juftlang.**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | **Aholi zichligi** | A | aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chishi. |
| 2 | **Aholi migratsiyasi** | V | ma'lum davr ichida tug'ilganlar va o'lganlar soni o'rtasidagi farq. |
| 3 | **Aholining milliy tarkibi** | C | muayyan hudud yoki mamlakatda yashovchi aholining millatlar bo'yicha tarkibi. |
| 4 | **Aholining tabiiy o'sishi** | D | muayyan hududda aholining joylashuv darajasi. Mamlakat yoki biror hudud (viloyat, tuman) aholi sonini shu hudud yer maydoniga (odatda 1km. ga) taqsimlash bilan hisoblab chiqariladi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Javobi:** | 1-D | 2 –A | 3 - C | 4 – V |

**7. Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlarini maydoni kattadan kichikka va kichikdan kattaga qarab mos raqamlarni jadvalning o'ng tomoniga yozing.**

1)Dehqonobod 2) Mirishkor 3) Muborak 4) Qamashi 5) Chiroqchi

| Viloyatlar nomi | javob raqamlar |
|---|---|
| Kattadan kichikka | 1,2,3,5,4, |
| Kichikdan kattaga | 4,5,3,2,1, |

**8. O‘zbekiston viloyatlarining maydoni kattadan kichikka va kichikdan kattaga qarab mos raqamlarni jadvalning o‘ng tomoniga yozing.**
**1)** Andijon 2) Namangan 3) Toshkent 4) Qashqadaryo 5) Navoiy

| Viloyatlar nomi | javob raqamlar |
|---|---|
| Kattadan kichikka | 5,3,2,4,1 |
| Kichikdan kattaga | 1,4,2,3,5 |

**9. Qashqadaryo viloyati o’rta va kichik shaharlar aholisi soni bo’yicha kattadan kichikka va kichikdan kattaga qarab mos raqamlarni jadvalning o’ng tomoniga yozing.**
1) Qamashi 2) Koson 3) Yakkabog’ 4)Shaxrisabz 5) Muborak 6)Kitob

| Viloyatlar nomi | javob raqamlar |
|---|---|
| Kattadan kichikka | 4,2,6,1,5,3 |
| Kichikdan kattaga | 3,5,1,6,2,4 |

**10. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatida joylashgan shaharlarni ajrating va mos raqamlarni jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.**
*1) Kitob; 2) Boysun; 3) Koson; 4)Denov; 5)Sherobod: 6)Sho’rchi; 7)Muborak; 8)Chiroqchi; 9)* Shaxrisabz*;10 Qumqo’rg’on*

| belgilar turi | javob raqamlar |
|---|---|
| Qashqadaryo | 1,3,7,8,9 |
| Surxondaryo | 2,4,5,6,10 |

*1-ilova*

**Sirdaryo viloyati tumanlari haqidagi ma’lumotga oid jadvalni to’ldiring.**

| № | Tuman nomi | sanoati | Qishloq xo’jaligi |
|---|---|---|---|
| 1.... | | | |

*2-ilova*

**Sirdaryo va Jizzax viloyatlariga VENN diagramma tuzing.**



*3-ilova*

| | |
|---|---|
|   | **Kartada berilgan raqamlar asosida tumanlar va ularning markazlari nomini yozing** |

*4-ilova*

**Jizzax viloyati tumanlari haqidagi ma'lumotga oid jadvalni to'ldiring.**

| **№** | **Tuman nomi** | **sanoati** | **Qishloq xo'jaligi** |
|---|---|---|---|
| 1.... | | | |

*5-ilova*

**Mirzacho`l iqtisodiy rayoniga oid BBB jadvalni to`ldiring**

| ***№*** | ***Mavzu savoli*** | ***Bilaman*** | ***Bilishni xohlayman*** | ***Bildim*** |
|---|---|---|---|---|
| | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni tarkibiga kiruvchi viloyatlar. | | | |
| | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni iqtisodiy geografik o'rni | | | |
| | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni foydali qazilmalari. | | | |
| | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni urbanizatsiya darajasi. | | | |
| | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni qishloq aholi punktlari. | | | |
| | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni xo'jaligi ixtisoslashgan tarmoqlari. | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni yirik sanoat korxonalari. | | | |
| | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni qishloq xo'jaligi tamoqlari. | | | |
| | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni tashqi iqtisodiy aloqalari. | | | |
| | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni ichki ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlari. | | | |

**"O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanidan mustaqil ishni bajarish uchun asosiy va qo'shimcha o'quv-adabiyotlar hamda axborot manbalari ro'yxati:**


**1.**Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Halq so'zi gazetasi. 2017 yil yanvar, №11.

2.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017.

3.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

4.Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. "O'zbekiston" , 2017y.

5.Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi, -T.: O'qituvchi, 1994.-209 b.

6.Maksakovskiy V.P. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya mira - M.: Prosveщenie, 2009 g.

7.Otamirzaev O.B., Qayumov A.A. Ijtimoiy geografiya: kecha, bugun, ertaga. "Istiqlol va geografiya", O'zbekiston Respublikasi Geografiya jamiyati se'zdi materiallari. - T.: - 1995.

8.To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti.- T.: O'zbekiston milliy enseklopediyasi, 2006.

9.Soliyev A, Safarov I. «Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari». T. 2003 y. «Talqin».

10.Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi). Toshkent, "Universitet", 2014.

11.Musayev P, Musaev J, "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" O'rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik T. "O'qituvchi" 2014y.

12.Vahobov H., Tillaboeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari. Toshkent. "O'qituvchi", 2001.

13.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.

14.www.ziyonet.uz

15. www.nuu.uz